

YONDASHUVLAR ASOSIDA TIL TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YOZMA

NUTQ MOHIYATI

Gulnora Narimova

Nizomiy nomidagi TDPU

O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14970531>

Annotatsiya. Mazkur maqolada til ta'lmini takomillashtirishda o'quvchining rasmiy ish hujjatlaridagi qoliplashgan so'z birikmalarini uning xususiyatlari, rasmiy matnda qo'llaniladigan stereotip birikmaning ishlatalish o'rinnari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til ta'limi, davlat tilida ish yuritish hujjatlari, yondashuvlar, uslub, matn, morfologik birliklar, morfemik shakllar, sintaktik qurilma, matn ustida ishslash.

СУТЬ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В УЛУЧШЕНИИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ПОДХОДОВ

Аннотация. В данной статье в целях совершенствования языкового образования анализируются стереотипные словосочетания в официальных трудовых документах обучающегося, их характеристики, а также места употребления стереотипного сочетания, используемого в официальном тексте.

Ключевые слова: языковое образование, распорядительные документы на государственном языке, подходы, стиль, текст, морфологические единицы, морфемные формы, синтаксический аппарат, работа над текстом.

THE ESSENCE OF WRITTEN SPEECH IN IMPROVING LANGUAGE TEACHING BASED ON APPROACHES

Abstract. In this article, in the improvement of language education, stereotyped word combinations in the student's official work documents, their characteristics, and the places of use of the stereotyped combination used in the official text are analyzed.

Keywords. language education, administrative documents in the state language, approaches, style, text, morphological units, morphemic forms, syntactic device, work on the text.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol yetib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda.

O‘qitishga zamonaviy yondashuvlar asosida tashkillashtirish va interfaol metodlarini qo‘llash yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

Adabiy tilning nutq uslublari haqidagi dastlabki bilimlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridanoq ona tili darsliklarida o‘quvchilarga berib boriladi. O‘quvchilar yoshligidan nutq uslublarining ahamiyati, jamiyatdagi o‘rni haqida tushunchalarga ega bo‘lishadi. Uslublar til birliklaridan qanday foydalanishni ko‘rsatib beruvchi nutq turidir.

Insonlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va mavqeini belgilaydigan mezon ham uning nutqidir.

Nutq amaliyotida so‘zlashuv, ilmiy, publitsistik, badiiy va rasmiy uslublar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z xususiyatlariga, qo‘llanish sohasiga ega. Jumladan, og‘zaki jonli so‘zlashuvda so‘zlashuv uslubidan, badiiy ijodiy matnlarda badiiy uslubdan, hujatchilikda esa rasmiy uslubdan foydalaniladi.

Nutq uslublarining rasmiy uslub turiga kiruvchi ish hujjatlari jamiyatda alohida o‘rin tutadi, chunki qaysi kasb egasi bo‘lishidan qati nazar har bir insonda rasmiy idoralarga, ishxona va tashkilotlarga yozma murojaat qilish ehtiyoji bor. Shu bois rasmiy ish hujjatlarini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish millat savodxonligini ta’milashning asosiy omillaridan biridir.

Rasmiy uslubga xos ish yuritish hujjatlarida so‘zlar, leksik vositalar tanlab olinadi.

Leksik vositalar nutq uslublarining qaysi turiga mansubligini aniqlab beradi. Har bir uslubga xos bo‘lgan leksik vositalar o‘sha uslub uchun uslubiy me’yor sanaladi. Nutqimizda ishlatilayotgan har bir so‘z leksik va grammatik ma’nolari bilan shu matndagi boshqa so‘zlarga mos kelsagina jumla ravon, fikr ifodali tarzda shakllangan bo‘lib, bu matn usluban sayqallashgan bo‘ladi. Ish yuritish hujjatlari matnida hissiy-emotsional so‘zlar ishlatilmaydi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining rasmiy ish uslubini ilk bor tadqiqot ishlarini olib borgan tilshunos D.A.Boboxonova ikki guruh leksikasini farqlaydi.

1. Rasmiy ish uslubida qo‘llaniladigan so‘zlar.
2. Bu uslubda qo‘llanmaydigan so‘zlar.

Rasmiy ish uslubini morfologik jihatdan tahlil qilib ayrim leksik birliklarning qo‘llanilish yoki qo‘llanmasligiga ko‘ra bo‘linishi to‘g‘ri deb hisoblaymiz. O‘quvchilarga bu uslubda qo‘llaniladigan so‘zlar yuzasidan ma’lumot berib, misollar orqali tushuntirilganidan keyin q‘llanmaydigan so‘zлarni ham sanab o‘tish rasmiy matnni to‘g‘ri tuzish uchun zarur omil

vazifasini bajaradi. Hujjat matnlarida leksik birliklarni to‘g‘ri ishlata olgan o‘quvchi qoliplashgan birikmalarni ham mazkur matnlarda to‘g‘ri qo‘llab rasmiy matn tuza oladi.

O‘zbek tilshunosligida ham rasmiy matnlarda qoliplashgan birikmalarni qo‘llash borasida talaygina ilmiy izlanishlar olib borilgan. Rasmiy uslubning hujjat matnlarida turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalarining ishlatilish o‘rinlari o‘rganilgan. “Turkiy hujjatchilik tarixida stereotip birliklarning ishlatilishi keng rusum bo‘lgan. Rasmiy qog‘ozlarning muayyan turlari va ularning bo‘limlari alohida o‘zagagina tegishli formulyarlarini yuzaga keltirgan. Rasmiy matnlarda qo‘llaniluvchi formulyarlarga qarab muayyan turlarga ajratish va uning janrini aniqlash imkoniy yuzaga keladi”.¹

Qoliplashgan so‘z birikmasini o‘quvchi tushuna olishi uchun u birinchi navbatda so‘z birikmasini o‘zi mustaqil tuza oladigan bo‘lishi kerak. Umumiyligi o‘rtalim muassasalarida o‘quvchida hujjat turlarining mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qoliplashgan so‘z birikmalarini, qoliplashgan sintaktik tuzilmalar shakllana boshlaydi. Ariza birinchi shaxs tomonidan yozilishi haqida ma’lumotlar berilib, keyin bu hujjat matnida ishlatiladigan qoliplashgan so‘z birikmalarini izohlanishi kerak. Turli zamonaviy yondashuvlarga tayanib ishlab chiqilgan innovatsion metodlarni qo‘llashning ijobiy tomoni shundaki, o‘quvchilar hujjat matnidagi qoliplashgan birikmani ishlatishni o‘rganishadi.

Arizaning matn qismidagi “...ga qabul qilishingizni so‘rayman” “...ga ruxsat berishingizni so‘rayman” kabi qoliplashgan sintaktik tuzilmalar o‘quvchining hujjat matnini tuzishini yengillashtiradi. O‘quvchilar qoliplashgan so‘z birikmalarini ishtirotida turli rasmiy hujjatlardan namunalar yozishadi.

“Tayinki, har bir bir hujjat turining mohiyati va maqsadi bilan bog‘liq ravishda o‘ziga xos qoliplashgan sintaktik tuzilmalar shakllana boradi”.²

Rasmiy uslub matnlarining shakllanishida har bir matnning o‘ziga xos qoliplashgan birikmalarini ishtirot etadi. Hujjat turlarida ishlatilgan qoliplashgan birikmalar biri ikkinchisiga mazmunan to‘g‘ri kelmaydi. Bu qoliplashgan sintaktik tuzilmalarni turli matnlarda turlicha ko‘rishimiz mumkin: masalan, korxona, tashkilot, ta’lim muassasalarida ko‘p qo‘llaniladigan buyruq matnida quyidagicha qoliplashgan so‘z birikmalarini ishlatiladi. – Arizasiga ko‘ra

¹. Омонов К. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомили (илк ва ўрта асрлар) : Филол. фан...дисс.-Тошкент, 2016. – 101 б

² Аминов М., Мадвалиев А., Махкамов Н., Махмудов Н. Иш юритиш амалий қўлланма., 2-нашри Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 2000. -166

...lavozimiga tayinlansin, – O‘z xohishiga ko‘ra ... o‘z lavozimidan ozod qilinsin, Boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan... kabi.

Hujjat matnlarida ishlatiladigan qoliplashgan so‘z birikmalarini ma’lumotnomma matnida ham uchratish mumkin.

Ma’lumotnomaning rasmiy matn qismida so‘ralgan joyga taqdim etish uchun berildi kabi qoliplashgan birikmasi ishlatiladi. Bu qoliplashgan so‘z birikmasidagi so‘zlarni morfologik birliklar bo‘yicha tahlil qilish o‘quvchilarни ushbu hujjatning ishlatilish o‘rinlarini yaxshi bilib olishi uchun muhim omil sanaladi. Ma’lumotnomma matnini o‘quvchi o‘zi yozmaydi balki bu hujjat tayyor blankada yozilgan bo‘ladi. Ma’lumotnomadagi qoliplashgan so‘z birikmalarida, ya’ni bunday sintaktik tuzilmada fe’lning vazifa shakllari: sifatdosh, harakat nomi, turlangan ot va lug‘aviy va munosabat shaklga ega bo‘lgan fe’l ishtirok etadi. Dars jarayonida qoliplashgan birikmalarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatish uchun savol-javob usulidan foydalanish ijobjiy natija beradi. Bu usulni dars jarayonida qo‘llasak, o‘quvchi mavzu bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladi va o‘zi mustaqil yozishga o‘rganadi.

Umumta’lim maktabining 9-sinf “Ona tili” darsligida ma’lumotnomma va bayonnomadan namunalar berilgan. Bu hujjatdagi qoliplashgan birikmalarni o‘rgatish uchun qiyoslash metodining analogik usulini qo‘llash yaxshi natija beradi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘atida” analogiya so‘zi shunday izohlanadi: “Analogiya (yun) – muvofiqlik aynanlik o‘xshashlik”.³ Izohdagi o‘xshashlik tushunchasi berilgan namunaga qarab matn yaratish jarayoniga ko‘proq mos keladi. 9-sinf “Ona til ” darsligida bayonnomadan namunaga yozish bu hujjatni tushunish va o‘zi mustaqil yoza olishi uchun asos bo‘ladi. “Namuna asosida sinf o‘quvchilari yig‘ilishining bayonnomasini yozing”⁴.

Mosini toping metodi ushbu metodda asosan o‘quvchi bilan o‘quvchilar, o‘quvchilar bilan o‘quvchilar va o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘tkaziladi. Sinfdagи o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Bir o‘quvchi har bir guruhdagi o‘quvchilarga ariza va tushuntirish xatining namunasini tarqatib chiqadi. Guruhdagi o‘quvchilar berilgan hujjatlarni leksik va morfologik jihatdan tahlil qilishlari kerak. Arizada uchraydigan qoliplashgan so‘z birikmalarni o‘quvchilar topib daftarlariiga yozishadi.

³ Madvaliev A. tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 81-b

⁴ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Ona tili. Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2014.

O‘qituvchi o‘quvchilarning tahlillarini tekshirib chiqib, hujjatlarni mustaqil yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilarning mustaqil yozgan ishlari bir guruhdan ikkinchi guruhlariga beriladi. O‘quvchilar hujjatni yozish jarayonidagi xatolarini o‘zaro tekshiradi va o‘qituvchi eng yaxshi yozilgan tushuntirish xati va ariza yozgan o‘quvchini rag‘batlantiradi.

Mosini metodini qo‘llash orqali o‘quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning og‘zaki va yozma nutqi o‘sadi.

Qoliplashgan so‘z birikmalarini o‘quvchilarga o‘rgatish uchun “Tezkor bilimdon” o‘yinini o‘quvchilar bilan birga o‘tqazish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqi rivojlanishi bilan birgalikda yozma nutqi ham talab darajasida bo‘lishi lozim. Shu bois A.G‘ulomov o‘zining kuzatishlari natijasida quyidagicha yozadi: Ba’zan o‘quvchilar berilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri javob qaytaradi.

O‘qituvchining nazarida u ona tilining qoidalarini yaxshi o‘zlashtiradigandek tuyuladi.

Ammo yozma ish jarayonida ana shu “o‘zlashtirgan” qoidaga taalluqli qator xatolar sodir bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilarning yozma nutqiga dars jarayonida alohida e’tibor berish ularning rasmiy ish hujjatlarini to‘g‘ri yozishga zamin hozirlagan bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, nutq uslublari, xususan, rasmiy uslub jamiyatda millat savodxonligini belgilovchi omil sanaladi. Ona tili fanini o‘qitishda hozirgi zamon talablari asosida yondashish, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy o‘qituvchi oldida turgan asosiy talablardan biridir. Chunki an’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni tayyor ma’lumotlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa ta’lim jarayonidagi yangi innovatsion texnologiyalar o‘rgatayotgan bilimlarni o‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda izlanib topishlariga, erkin holda xulosa chiqarishga o‘rgatmoqda. Yuqori sinf o‘quvchilarining yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishini ta’minalash hayoti davomida duch kelgan har bir ish yuritish hujjatlarini o‘zları mustaqil yozishi uchun ularga keraklicha bilim berish va yozishga o‘rgatish asosiy vazifamizdir. Shunday ekan, o‘quvchilarda bu borada to‘g‘ri va keng qamrovli bilim berish olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish bizning asosiy maqsadimizdir.

REFERENCES

1. Аминов М., МадвалиевА., Маҳкамов Н., Махмудов Н. Иш юритиш амалий қўлланма., 2-нашри Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 2000. -166
2. Madvaliev A. tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 81-b

3. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. -107 б
4. Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомили (илк ва ўрта асрлар): Филол. фан...дисс.-Тошкент, 2016. – 101 6
5. A. Kurbanova. Methodology of Developing Speech Competences of Students in the Process of Mother Tongue Education. Received. Vol. 25, Issue 3, 2021. P 8911 – 8923